



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

• WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz •

2026-yil 22-yanvar, № 14 (9185)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV AMALIY TASHRIF BILAN SYURIX SHAHRIGA KELDI

Syurix xalqaro aeroportida
Prezidentimizni Birlashgan savdo-sanoat
palatasi rahbari Dorit Probst kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 22-yanvar kuni Davos shahrida mamlakatimiz yetakchisi AQSH Prezidenti Donald Trump tashabbusi bilan tashkil etilayotgan Tinchlik kengashi Nizomini imzolash marosimida ishtirok etishi hamda qator ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazishi ko'zda tutilgan.

O'ZA.

FIFA prezidenti:

O'ZBEKISTON — FUTBOLNI RIVOJLANTIRISHDA ISHONCHLI VA STRATEGIK HAMKOR

FIFA prezidenti Janni Infantino o'zbek futbolining rivojlanishi va o'zbekistonlik sportchilarning so'nggi yillardagi yutuqlari haqida fikr bildirib, videomurojaatnoma yo'lladi.

Intervyu

– 2016-yilda FIFA prezidenti lavozimiga kirishganimdan buyon bir necha marta O'zbekistonda bo'ldim, – dedi FIFA rahbari videomurojaatnomasida. – Har bir tashrifimda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'ati va izchil modernizatsiya yo'lidan borayotganini ko'rdim.

O'zbekiston 1994-yilda FIFAg a'zo bo'lganidan beri mamlakat futbol tizimi strategik rejalashtirish, infratuzilmaga sarmoya kiritish va futbol ta'limini rivojlantirish orqali sezilarli darajada mustahkamlandi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda o'z lavozimiga kirishganidan so'ng sport va futbolni rivojlantirishga aniq yo'nalish berdi. Futbol bo'yicha terma jamoaning 2024-yilgi yozgi Olimpiada o'yinlarida qatnashishi o'zbek yoshlari salohiyatini xalqaro maydonda yaqqol ko'rsatdi.

FIFA turnirlarining O'zbekistonda o'tkazilishi futbolning global miqyosda kengayishi va uning xalqaro miqyosda e'tirofini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda o'tkazilgan futbol bo'yicha jahon chempionati tarixiy voqe'lik – mamlakat Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib FIFA turniriga mezbonlik qildi.

O'zbekiston Olimpiya shaharchasi timsolida FIFAning yangi turnirlarini o'tkazish uchun munosib nomzod sifatida ishonch bilan o'zini namoyon etayotir. Buni 2027-yilda bo'lib o'tadigan "U20" jahon chempionatiga O'zbekiston Ozarbayjon bilan birgalikda mezbonlik qilishi ham tasdiqlaydi. Mazkur "U20" jahon chempionati ikki konfederatsiya tomonidan o'tkaziladigan ilk turnirdir.

Samarqand viloyatini rivojlantirish bo'yicha katta rejalar, jumladan, Kattaqo'rg'onida futbol akademiyasi tashkil etilishi mazkur sport turiga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va FIFAning har bir iste'dodga o'zini ko'rsatish imkoniyatini yaratish missiyasiga mos keladi.

O'zbekiston hukumati va Futbol assotsiatsiyasining o'z maqsadlarini amalga oshirishida hissam qo'shilganidan faxrlanaman. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasining "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlanishim men uchun katta sharaf.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasida so'zlagan nutqida O'zbekiston xalqlar, madaniyatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni mustahkamlashga intilayotganini ta'kidladi. Bu FIFA to'liq qo'llab-quvvatlaydigan falsafa bo'lib, O'zbekiston biz uchun futbolni rivojlantirishda ishonchli va strategik hamkor ekanini tasdiqlaydi.

Biz O'zbekiston bilan birgalikda millionlar o'yini bo'lgan futbolni rivojlantirishda davom etamiz. Chunki O'zbekiston millat sifatida ham, hamkor sifatida ham ishonch va e'tirofga loyiq davlat.

"Dunyo" AA.
Jeneva



TURIZM

IQTISODIYOTNING STRATEGIK TARMOG'I

Turizm mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda lokomotiv tarmoqlardan biri. Shu bois davlatimiz rahbari Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida keyingi besh yilda xorijiy turistlar sonini 2 karra – 11 million nafardan

20 million nafarga oshirish, turizm xizmatlari hajmini esa 20 milliard dollarga yetkazish bo'yicha katta marra olinganini alohida ta'kidladi. Shu maqsadda turizm infratuzilmasini yanada rivojlantirish borasidagi ishlar izchil davom ettiriladi.

Mushohada

Darhaqiqat, turizm infratuzilmasi yildan-yilga yaxshilanib boryapti. Yangi mehmonxonalar, xostellar, oilaviy mehmon uylari, dam olish maskanlari barpo etilmoqda. Avtomobil va temir yo'l tarmoqlari, havo qatnovlari kengaytirilib, turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Elektron vizalar, onlayn bron qilish tizimlari, raqamli turistik platformalar sohaning ochiqligi va samaradorligini oshirmoqda. Xalqaro ko'rgazma va forumlarda esa O'zbekistonning turistik brendi faol targ'ib qilinayotir.

Yurtimizda an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda ekoturizm, gastronomik, tibbiy, sport va agroturizm rivojlantirilishi sohada mavsumiylikni kamaytirib, hududlar taraqqiyoti va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro e'tirof: O'zbekistonning sayyohlik salohiyati oshmoqda

Prezidentimizning 2025-yil 15-maydagi "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin

ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq respublika hududlariga xorijiy turistlarning safarlarini tashkil etish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Natijada yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlar soni yil sayin ortib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz.

– Mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlar soni 2017-yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda ular 11 milliondan oshib, turistik xizmatlar eksporti 4,8 mlrd. dollarga yetdi, shuningdek, vizasiz tartib joriy etilgan davlatlarning soni 94 taga ko'paydi, – deydi O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi raisi maslahatchisi Feruz Dodiye. – Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilning yanvar – sentabr oylarida xorijiy sayyohlarni jalb qilish bo'yicha dunyo miqyosida eng yuqori o'sish qayd etilgan "TOP – 7" davlatlar qatoriga kirdi. Xususan, mamlakatga tashrif buyurgan xalqaro

turistlar oqimi 2019-yil darajasiga nisbatan 73 foizga oshgani O'zbekistonning global turizm ma'konidagi mavqei izchil mustahkamlanib borayotganini ko'rsatdi.

Turizm sohasida qator yangi hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yilib, kelgusida turli davlatlar bilan turizm almashinuvini yanada rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejalar ustida ishlanyapti. Xorijiy davlatlarning turizm biznesi vakillari bilan aloqalarni kengaytirish, biznes forumlar va taqdimot uchrashuvlarini tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratilyapti.

Hududlarda 954 ta yangi joylashtirish vositalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Sayyohlarga



xizmat ko'rsatuvchi 662 ta yangi turistik tashkilot va turagent ochilib, ular soni 4 348 taga yetdi.

Investitsiya sohasida 421 ta loyiha amalga oshirilib, 6 313 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi, yangi mehmonxonalar, turizm qishloqlari tashkil etildi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatida 3 ta yirik turizm klasteri faoliyat boshladi.



Senat qo'mitasida

AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH — BOSH MAQSAD

Oliy Majlis Senati Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasining majlisida "O'zbekiston – 2030" strategiyasining qishloq va suv xo'jaligi hamda ekologiya yo'nalishlarida belgilangan ustuvor vazifalar, jumladan, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari ko'rib chiqildi.

Muhokama jarayonida qishloq xo'jaligini rivojlantirish, suvdan oqilona foydalanish, ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash va ekologik muammolarni bartaraf etish, "yashil" iqtisodiyotga o'tishni jadallashtirish hamda iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish bo'yicha belgilangan maqsadlarga alohida e'tibor qaratildi.

Ta'kidlanganidek, Strategiyada "yashil" iqtisodiyotga o'tish, uning asosi bo'lgan

qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko'rsatkichlarini, qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish hamda irrigatsiya tizimi va suv tejovchi texnologiyalarni rivojlantirish, soha boshqaruviga xususiy sektor hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy etish kabi aniq maqsad va vazifalar ko'zda tutilgan.



Davra suhbatlari

KIBERJINOYATCHILIKKA QARSHI SAMARALI KURASH

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan "Kiberxavfsizlikni ta'minlash va milliy raqamli infratuzilmalarning barqarorligini mustahkamlashdagi ustuvor vazifalar" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Unda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Oliy sud, Bosh prokuratura, Ichki ishlar, Raqamli texnologiyalar, Tashqi ishlar vazirliklari, Parlament tadqiqotlari instituti va boshqa ilmiy-tadqiqot tashkilotlari vakillari, Yoshlar parlamenti a'zolari ishtirok etdi.

Joriy yilning 13-yanvar kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan

yig'ilishida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida kiberxavfsizlikni ta'minlash va milliy raqamli infratuzilmaning barqarorligini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanib, mutasaddilarga shaxsga doir ma'lumotlar va raqamli tizimlar himoyasini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash vazifasi topshirildi.



FAKT VA RAQAMLAR

2026 YILDA:



sanoatda "Unumdorlik
va samaradorlikni ikki
karra oshirish" dasturi
boshlanadi;

Iqtisodiyot va moliya
vazirligi tomonidan mehnat
unumdorligi va energiya
samaradorligi bo'yicha
alohida loyiha amalga
oshiriladi.

Bu borada "To'rtinchi sanoat inqilobi markazi" tashkil etiladi.

Markaz negizida robototexnika, internet buyumlari, "aqlli" fabrika kabi "Industriya 4.0" yechimlarini sanoat korxonalarida joriy etish uchun "tartibga solish mexanizmi" yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

USHBU LOYIHAGA

xalqaro moliya institutlaridan
200 MILLION DOLLAR kredit
va grant jalb qilinib, sanoat
korxonalari uchun xorijdan
yuqori malakali texnolog va
muhandislar olib kelinadi;

biznes jarayonlari
raqamlashtiriladi;

energiya va boshqa xarajatlarni
qisqartirish bo'yicha auditlar
o'tkaziladi;

ilg'or texnologiyalar transfer
qilinadi.

DAVLAT MUSTAQILLIGI VA IJTIMOYIY BARQARORLIK KAFOLATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishi mamlakatimiz xavfsizlik va mudofaa siyosatida mazmunan yangi bosqich boshlanganini ko'rsatdi. Yig'ilishda bildirilgan fikr va vazifalarni bugungi global hamda mintaqaviy o'zgarishlarga berilgan tizimli javob sifatida baholash mumkin. Sababi, bugun jahonda harbiy-siyosiy vaziyat beqarorlashib borayotgan, mintaqaviy mojarolar kengayib, qurollanish poygasi yangi shakl kasb etayotgan bir paytda O'zbekistonning xavfsizlikka oid yondashuvi tahsina sazovor.

Nuqtai nazar

Bugun xavf-xatarlar faqat harbiy maydon bilan cheklanib qolmayapti. Kiberhujumlar, axborot xurujlari, sun'iy intellekt, iqtisodiy bosim va geosiyosiy ta'sir o'tkazish vositalari davlat xavfsizligiga tahdidlarning ajralmas qismiga aylandi. Masalan, 2025-yilda butun dunyo bo'ylab nizolar soni tarixiy maksimumga yetdi. Katta davlatlarning o'z gegemonligini saqlab qolishga urinishlari natijasida yuzaga kelgan xaos ushbu voqealarga zamin bo'ldi. Aynan shu holat butun dunyo bo'ylab keskinlik o'choqlari sonining ko'payishiga olib keldi.

"Michael Bauer International" geoaxborot xizmati tomonidan tayyorlangan "2025-yilgi xavfsizlik bo'yicha hisobot"da dunyo bo'ylab turli shiddatdagi 1450 ta nizo qayd etilgan. Bir yil ichida ularning soni 70 taga ko'paygan, 18 ta nizo esa hal qilingan. Urushlar 31 ta davlatga tarqalgan. Shu bilan bir qatorda, yirik davlatlar tomonidan kichikroq mamlakatlar suvereniteti va mustaqilligi, hududiy yaxlitligiga tajovuzlar ortib bormoqda. Bunday sharoitda voqealarning shunchaki kuzatuvchisi bo'lish yaramaydi. Shu ma'noda, davlatimiz rahbarining barcha soha va tarmoqlarni "proaktiv ish rejimi"ga o'tkazish haqidagi talabi bugungi global vaziyatga berilgan eng to'g'ri va o'z vaqtidagi javob bo'ldi. Endi xavfga javob berish emas, xavfni oldindan ko'rib bilish va bartaraf etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Xalqaro tajriba va milliy amaliyot

O'zbekiston Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning mudofaa qobiliyatini nafaqat mustahkamladi, balki uni mintaqadagi eng zamonaviy va jangovar armiyalardan biriga aylantirdi. Jahon tajribasi va tahlillardan kelib chiqib, ichki hamda tashqi xatarlarning



oldini olish va bartaraf etish bo'yicha yangi jangovar bo'linmalar tuzildi, qo'shinlar tarkibi optimallashtirildi.

Milliy armiyamizda uchuvchisiz uchish apparatlari bo'linmalarining tashkil etilishi strategik qadam bo'ldi. Armiyani raqamlashtirish jarayoni esa boshqaruv tizimining tezkorligini ta'minlamoqda. Raqamli texnologiyalar qo'shinlarni boshqarishda inson omilini kamaytirib, qaror qabul qilish vaqtini bir necha barobarga qisqartirdi. Armiyani modernizatsiyalash va zamonaviy qurollantirishning yangi tizimi – mudofaa sanoati yanada rivojlanirilib, qo'shimcha korxonalar ochildi. Mashg'ulotlar soni va shiddatining 1,5 barobarga ko'tarilgani esa – shunchaki raqam emas. Bu harbiy xizmatchilarning real jangovar sharoitlarga moslashuvchanligini oshirish, demakdir.

Yangi taktik usullarning joriy etilishi esa qo'shinlarning nafaqat an'anaviy front chizig'ida, balki shahar sharoitida, tog'li hududlarda va lokal nizolarda ham muvaffaqiyatli harakat qilishiga zamin yaratmoqda. Xalqaro "Global Firepower Index" reytingida O'zbekiston armiyasi Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda to'rtinchi va dunyoning 162 davlati orasida 58-o'rinda qayd etilgan. Ushbu indeks mutaxassislari armiyalarni baholashda 60 dan ortiq mezonlarni hisobga olgan. Bu raqamlar ham milliy armiyamizning tobora ilg'orlar safidan joy egallayotganini namoyish qiladi.

Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining tashkil etilishi O'zbekiston harbiy ta'lim tizimidagi eng muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Prezidentimiz tashabbusi asosida ish

boshlagan bu oliygohning maqsadi shundan iboratki, bugungi askar va ofitser faqatgina qurolni ishlata bilishi kifoya emas, u tahlil eta oladigan, tezkor qaror qabul qiladigan va yuqori texnologiyalarni boshqaradigan intellektual shaxs bo'lishi lozim. Sun'iy intellekt asosidagi o'qitish tizimlarining joriy etilishi kadrlar tayyorlash jarayonini individuallashtirish va baholashda xolislikni ta'minlash imkonini bermogda. Bu kelajakdagi "aqlii urushlar"ga bugundan tayyorgarlik ko'rish, demak.

Har qanday zamonaviy qurol, agar uni boshqarayotgan insonning ruhiyati mustahkam bo'lmasa, samara bermaydi. Shu nuqtayi nazardan, milliy armiyamizda ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikka berilayotgan e'tibor vatanparvarlik hissini faqat shiorlarda emas, balki har bir harbiy xizmatchining ongida shakllantirishga yo'naltirilgan.

Eng katta inqilobiy o'zgarishlardan biri – muddatli harbiy xizmatning ijtimoiy mohiyati o'zgartirilayotgani. Endilikda armiya yoshlar uchun yo'qotilgan bir yil emas, balki muvaffaqiyat maydoniga aylanmoqda. Harbiy qismlarda 3 – 6 oylik kasbga tayyorlash kurslarining joriy etilishi askarning uyga sertifikatlangan mutaxassis bo'lib qaytishini ta'minlaydi. Bu mehnat bozorida gi ishsizlik muammosini hal qilishda ham muhim omil. Shu bilan birga, Qurolli Kuchlarda IT avlodni shakllantirish masalasi davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. "Bir million dasturchi" va "Besh million sun'iy intellekt yetakchisi" loyihalariga har yil 5 ming askarning jalb qilinishi bilan davlatning kelajakdagi raqamli iqtisodiyoti uchun kuchli xazira yaratiladi.

Xayrli tashabbuslar

Prezidentimiz raisligida o'tgan yig'ilishda Mudofaa doktrinasini yangilash borasidagi tashabbus ham ilgari surildi. Davlatimiz rahbari 1997-yildagi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi va 8 yil oldingi Mudofaa doktrinasini qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berdi.

Buning sabablari aniq: sakkiz yil avvalgi tahdidlar bilan bugungi xavflar o'rtasida katta farq bor. Uchuvchisiz uchish apparatlari, sun'iy intellekt va raqamli boshqaruv tizimlari urush olib borish taktikasini o'zgartirib yubordi. O'zbekiston hech qanday harbiy blokka qo'shimlaslik maqomini saqlab qolgan holda, o'z mudofaa salohiyatini mustaqil va yuqori texnologiyalar

asosida rivojlantirish yo'lidan boradi. Yangi doktrina mamlakatimizning hech kimga tahdid qilmaslik, lekin o'z chegaralarini daxlsiz saqlash tamoyilini huquqiy va strategik jihatdan mustahkamlaydi.

Yangi doktrinada ham bloklarga qo'shimlaslik siyosati ustuvor maqsad bo'ladi. O'zbekiston o'z mustaqil tashqi siyosatini davom ettirib, hech qanday harbiy-siyosiy bloklarga a'zo bo'lmaydi. Bu mamlakatimizning mintaqaviy barqarorlik markazi sifatidagi maqomini mustahkamlaydi. Yangilangan doktrinada ko'p tomonlama diplomatiya va qo'shni davlatlar bilan tinchlik-totuvlik tamoyili O'zbekiston uchun ustuvor bo'lib qolaveradi.

Har qanday armiya nafaqat zamonaviy qurol-yarog', balki ma'naviy va moddiy jihatdan rag'batlantirilgan, o'z oilasi va kelajagidan ko'ngli to'q harbiy xizmatchilar bilan kuchlidir. Harbiy xizmatchilarning oylik maoshlari va ustamalarining oshirilishi shunchaki iqtisodiy ko'mak emas, balki davlatning o'z himoyachilariga bo'lgan yuksak e'tibori namunasidir.

Prezidentimiz qayd etganidek, harbiy xizmatchilar mehnatini qadrlash doimo diqqat-e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur. Chunki eng zamonaviy qurolni bilimli va ijtimoiy himoyalangan inson boshqaradi. Ijtimoiy himoya – jangovar shaylik kafolati ham. Yig'ilishda e'lon qilingan ijtimoiy paketlar ko'lami juda keng. Ya'ni 1-apreldan ofitserlar ustamasining 2 karra oshirilishi, serjant va askarlar maoshining ko'tarilishi harbiy xizmatning nufuzini yangi bosqichga olib chiqadi.

Hududiy mudofaa ishlari bo'limlaridagi harbiy bo'lmagan xodimlar oyligining bosqichma-bosqich 20 va 50 foizga oshirilishi tizimning har bir bo'g'ini e'tiborda ekanidan dalolat. 30 yildan ortiq xizmat qilgan faxriylar uchun pensiya miqdorining 100 foizga yetkazilishi – bu Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish munosib qadrlanadi, degan tamoyilning amaldagi ifodasidir. Oilasi va kelajagidan ko'ngli to'q askar bor

Aytish joizki, Xavfsizlik kengashi yig'ilishi o'z nafaqat qurol bilan, balki yuksak ijtimoiy maqom va zamonaviy ilm bilan qurollantirishga qaratilgan strategiyani belgilab berdi. Bu mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Yangi O'zbekistonning mustahkam kelajagi uchun qo'yilgan muhim qadamdur. Tinchlikni saqlash – uning himoyasiga har lahzada tayyor turish, demak. Prezidentimiz ilgari surgan yangi vazifalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

diqqatini faqat jangovar mahoratini oshirishga qaratadi.

Muddatli harbiy xizmatga mutlaqo yangicha yondashuv

Yig'ilishda ilgari surilgan eng muhim ijtimoiy yo'naltirilgan tashabbuslardan yana biri – bu muddatli harbiy xizmatga mutlaqo yangicha yondashuvdir. Prezidentimiz uni faqat harbiy burch emas, balki yoshlar uchun hayotiy start maydoni sifatida tashkil etish zarurligini ta'kidladi.

Endilikda armiyada xizmat qilgan har bir yosh kamida bitta kasb egasi bo'lib chiqishi, IT, sun'iy intellekt, dasturlash kabi zamonaviy yo'nalishlarda bilim olishi, oliy ta'limga kirish va mehnat bozorida o'z o'rmini topishi uchun barcha sharoit yaratilishi bu haqiqiy ijtimoiy islohotdir. Jumladan, askarlarga muddatli harbiy xizmatni o'tash davrida harbiy qismning o'zida oliygohga o'qishga kirish uchun imtihon topshirish imkoniyati yaratiladi. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, talabalikka qabul qilingan askarlar muddatli harbiy xizmat yakunlanishi bilan oliygohda o'qishini boshlaydi.

Shu bilan birga, armiyadan qaytib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olmoqchi bo'lgan yoshlarga xorijiy til va fan sertifikatli olish xarajatlari qoplab beriladi. Agar ular oliygohlarga shartnoma-to'lov asosida kirs, foizsiz ta'lim krediti ajratiladi. Bundan tashqari, armiyadan qaytgan yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ham alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagidagi yoshlarning kredit xarajatining 6 foizi davlat tomonidan qoplanadi, davlat tashkilotlariga ishga kirmoqchi bo'lgan yoshlar uchun Boshqaruv samaradorligi agentligi tomonidan o'tkaziladigan test ballariga 10 foizlik imtiyoz berish amaliyoti joriy qilinadi. Xususiy sektorda faoliyat yuritmoqchi bo'lgan yoshlarga kasbni egallash va sertifikat olish xarajatlari to'lab beriladi.

Aytish joizki, Xavfsizlik kengashi yig'ilishi o'z nafaqat qurol bilan, balki yuksak ijtimoiy maqom va zamonaviy ilm bilan qurollantirishga qaratilgan strategiyani belgilab berdi. Bu mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va Yangi O'zbekistonning mustahkam kelajagi uchun qo'yilgan muhim qadamdur. Tinchlikni saqlash – uning himoyasiga har lahzada tayyor turish, demak. Prezidentimiz ilgari surgan yangi vazifalar aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Obidjon HAMIDOV,
Buxoro davlat universiteti rektori.

FARG'ONA

tomonlarda...

HOSILDORLIK NIMAGA BOG'LIQ?

Rishton tumanidagi "Qoshqayron" mahalla fuqarolar yig'inida ikki yildan buyon Yevropadan keltirilgan va sovuqqa chidamli qulupnay navlari yetishtirilmoqda.

Ya'ni Italiya, Polsha, Turkiyadan olib kelingan ertapishar va serhosil, muhimi, eksportbop navlar mahalliy iqlim sharoitiga oson moslashdi. Mahalla mirishkorlari qulupnayning Janubiy Koreyadan keltirilgan navlaridan ham mo'l hosil olib kelmoqda.

Xususan, Farrux Karimjonov tomonidan tashkil etilgan zamonaviy issiqxonada ilg'or agrotexnologiyalar yordamida intensiv usulda parvarishlanayotgan qulupnay ilk hosil nishonalarini ko'rsatdi. Yaqin kunlarda sifati va ekologik toza mahsulot ichki bozorga yetkazib beriladi.

– Hozirda 50 ga yaqin aholi xonadonlaridagi issiqxonalarda ilm-fan yutuqlari va innovatsiya g'oyalari asosida jahon bozori talablariga mos mahsulot yetishtirilmoqda, – deydi "Qoshqayron" MFY raisi Dilmurodjon Hamroyev. – Bu yil ham mahallada oilaviy tadbirkorlik, tomoqqadan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida 40 ta mikroloyiha ishlab chiqildi.



BOLALARNING QUVONCH MASKANI

Marg'ilon shahrining "Pichoqchi" mahalla fuqarolar yig'ini hududida nogironligi bo'lgan bolalar uchun "Quvonchli uy" nomli kunduzgi parvarishlash xizmati tashkil etildi.



Tadbirkor Munisaxon Bobobekovanning ushbu tashabbusi Marg'ilon shahar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Natijada 40 o'rimga mo'ljallangan, 3 dan 18 yoshgacha nogironligi bo'lgan bolalarga ushbu shinam maskanda malakali xizmat ko'rsatila boshlandi. "Quvonchli uy"da defektolog, terapevt hamda psixolog muolajasi ham amalga oshiriladi.

– Maskan ishga tushishi bilan 16 ta yangi ish o'rni yaratildi, – deydi loyiha tashabbuskori M. Bobobekova. – Aytish joizki, "Quvonchli uy" faoliyatini yo'lga qo'yishda Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-fevraldagi "Nogironligi bo'lgan bolalar uchun kunduzgi parvarish xizmatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori huquqiy asos bo'ldi.

QO'G'IRCHOQLAR DUNYO KEZADI

Quvasoy shahridagi "Hamdo'stlik" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Roziyaxon Mallaboyeva bir necha yildan buyon milliy andozalarga mos qo'g'irchoqlar tayyorlash bilan shug'ullanib, mahalladoshlariga ham ushbu hunar sir-asorini o'rgatib kelayotir.



Ayni paytda 15 nafar qiz ushbu hunar bo'yicha saboq olmoqda. E'tiborlisi, tajribali hunarmand ijtimoiy tarmoqda maxsus savdo platformasini tashkil etib, o'z mahsulotlarini Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlarida joylashgan turizm maskanlariga yetkazib berayotir.

– Keng assortimentdagi qo'g'irchoqlar tayyorlashda ijodiy fikrlash muhim ahamiyat kasb etadi, – deydi mohir hunarmand. – Shuning uchun mazkur hunar bilan shug'ullanish juda zavqli. Oilamiz bilan asosiy ishimizdan so'ng birgalikda mehnat qilib, har oyda qo'shimcha 5-6 mln. so'm daromadga ega bo'layapmiz.

Ushbu mahallada o'zbek, qirg'iz, tojik va tatar millatiga mansub 2,5 ming nafar aholi yashaydi va har bir oila muqim daromad manbasiga ega.

Botir MADIYOROV
("Xalq so'zi").

Qulaylik

NUKUS KO'CHALARIDA ELEKTROBUSLAR

Nukus shahrida aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmati sifati yangi bosqichga ko'tarilmoqda. "Sapsan Trans Nukus" korxonasi Xitoy davlatidan 12 ta elektrobus olib kelgani ham shundan dalolat beradi. Bu ekologik toza va tejamkor transport vositalarida imkoniyati cheklangan yo'lovchilar chiqib-tushishi uchun panduslar mavjud, mobil telefonlarni quvvatlash jihozlari o'rnatilgan.



– Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalar hamda Nukus shahrida jamoat transportini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar doirasida yana 200 ta yangi avtobus olib kelinishi rejalashtirilgan, – deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligining sektor rahbari Muratbay Jiyemuratov. – Bugungi kunda shahar bo'ylab 20 ta yo'nalish tashkil etilgan bo'lib, ularni zamonaviy transport vositalari bilan to'liq ta'minlash nazarda tutilgan.

Ayni paytda "Sapsan Trans Nukus" korxonasi tomonidan xizmat ko'rsatish ko'laminii kengaytirish maqsadida Nukus shahrida 200 ta avtobus sig'imiga ega bo'lgan zamonaviy park barpo etilmoqda. Bu esa transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va haydovchilar uchun munosib sharoit yaratish imkonini beradi.

G'ayrat OTAJONOV
("Xalq so'zi").

O'SMIR NEGA JINOYATGA QO'L URDI?

Darhaqiqat, hech bir inson jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Biroq u ulg'ayarak ekan, umr so'qmoqlarida adashib ketishi, hayotning pastu balandida qoqilishi mumkin. Agar o'smir ana shu sinovli damlarda yaqinlaridan mehr ko'rsa, ota-on, mahalla-ko'y unga to'g'ri yo'l ko'rsatsa, u albatta o'zini o'nglab oladi, jamiyatda o'z o'rini topadi.

Taassuf

Mamlakatimizda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, ularni qo'llab-quvvatlash borasida maktab, "mahalla yettilligi", tegishli idoralar mas'uliyati kuchaytirilgan bo'lishiga qaramay, o'g'il-qizlar orasida turli qing'ir ishlarga qo'l urayotgan, jinoyat ko'chasi ga kirib qolayotganlar uchramoqda.

Jumladan, Qashqadaryo viloyatida sodir etilgan jinoyatlarning o'tacha 4,5 foizi voyaga yetmaganlar hissasiga to'g'ri keladi. Bu kichik raqam emas. Xususan, 2025-yilning dastlabki uch choragida jinoyat ishlari bo'yicha viloyatdagi tuman, shahar sudlari tomonidan jami 3713 shaxsga nisbatan 2915 ta jinoyat ishi ko'rib chiqilgan bo'lsa, shundan 133 ta jinoyat ishi (163 nafar shaxsga nisbatan) voyaga yetmaganlar ishtirokida sodir qilingan. 16 nafar voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sudlar tomonidan ozodlikdan mahrum etish bilan bogliq jazo choralari qo'llanilgan.

Bu achinarli qismat egalari tushgan vaziyatlarni tahlildan o'tkazar ekansiz, aksariyat hollarda oila, mahalla yoki ta'lim

muassasasidagi beparvollik, nazoratsizlik o'smarning jinoyatga qo'l urishiga zamin yaratganiga amin bo'lasiz.

Masalan, Nishon tumanidagi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan birining 9-sinf o'quvchisi Ulug'bek Mardonov (ism-familiya o'zgartirilgan) otasi urgani uchun arazlab, uyidan chiqib ketgan. O'zlari vaqtinchalik Toshkent shahrida bo'lgan bir oilaning qishloqdagi uyiga deraza orqali kirib, haftalab shu yerda yashagan. Xonadon sohibiga tegishli pul va bir qancha buyumlarni o'g'irlab, o'z ehtiyojlari uchun ishlatib yuborgan.

Ajablanarli tomoni, 15 yoshli bolaning haftalab uyga kelmagani ota-onani sira tashvishga solmagan. Mahalla-ko'ydan biror kishi bu bola nima uchun begona xonadonning oldida o'rallashib yurganiga qiziqib ham ko'rmagan. Yoki boshqa bir misol. 2009-yilda Chiroqchi tumanida tug'ilgan, tumandagi umumta'lim maktablaridan birining 9-sinf o'quvchisi bo'lgan Jasur Norsafarov (ism-familiya o'zgartirilgan) ilk bor 2024-yilning aprel oyida o'g'irlik jinoyatini sodir etib, sudlangan edi. O'shanda unga nisbatan 1,5 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi

tayinlandi. Ammo oradan bir oy o'tib yana bir qing'ir ishi oshkor bo'ldi. Bu safar unga nisbatan avvalgi jazoning o'talmay qolgan qismini to'liq qo'shish yo'li bilan 1 yil 10 oy muddatga ozodlikni cheklash jazosi belgilandi. 2024-yilning dekabr oyida O'zbekiston Prezidentining tegishli farmoniga asosan afv etilgan.

Shuncha g'avg'olardan so'ng ham na oila a'zolari, na mahalla-ko'y Jasur Norsafarovning qayerda, kim bilan yurgani, nima ishlar bilan mashg'ulligiga e'tibor qilmadi. Natijada mutlaq nazoratsiz o'smir 2025-yil 7-mart kuni uydan chiqib ketib, Yakkabog' tumani markaziga boradi. Tun yarmida shu yerdagi savdo do'konlaridan birining eshigini buzib kirib, u yerdan umumiy narxi 13 mln. 110 ming so'mlik 6 dona telefon apparati, 1 dona qo'l soati, 1 dona erkaklar sumkasi hamda 500 ming so'm naqd pulni o'marib ketadi.

Ertasi kuni o'g'irlangan buyumlarni Chiroqchi tumani markazidagi savdo shoxobchalariga sotib, pulini o'z ehtiyoji uchun ishlatib yuborgan.

Bir bolaning noboy yo'lga kirishi jamiyatga ziyon yetkazsa, to'g'ri yo'lga tushib, kelajakda yaxshi inson bo'lishi faqat foyda keltiradi. Agar Jasurning tarbiyasiga o'z vaqtida ota-onasi, "mahalla yettilligi", faollar befarq bo'lmaganida, o'qishi, kim bilan va qayerda yurganini nazorat qilganida edi u ham jinoyatga qo'l urmagan, katta hayot ostonasidayoq yo'ldan adashmagan bo'lardi. Biroq endi hech. Ulug'larimiz aytganidek, qilmish – qidirmish. Jinoyatga esa jazo muqarrar.

Oradan o'n kun o'tib "yosh o'g'ri" yana ovga chiqadi. Bu safar Chiroqchi tumani markazidagi savdo do'konlaridan birini ko'z ostiga olgandi. Yarim tunda do'kon eshigini buzib, ichkaridan umumiy narxi 11,5 mln. so'mlik 8 dona telefon apparati va 2 dona zaryadlash vositasini olib, sekingina juftakni rostlagan. Yo'l-yo'lakay yana bir do'kondan 6 dona erkaklar ko'yagi hamda 2 juft poyabzalni o'margan.

Yanada achinarlisi, J. Norsafarov 2025-yil 30-mart kuni tunda Ko'kdala tumani markazidagi ko'chalardan birida qarovsiz qoldirilgan "Nexia" avtomobilini olib qochadi. Mashina egasining xabariga asosan tezkor qidiruvga kirishgan IIB xodimlari tomonidan tumanning Uyshun mahallasi hududiga yetganda qo'lga olindi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Ko'kdala tumani sudining yopiq sud majlisida Jasur Norsafarov tomonidan sodir etilgan qilmish ko'rib chiqilib, unga nisbatan 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Jazo tarbiya koloniyalarida o'tashi belgilandi.

Bir bolaning noboy yo'lga kirishi jamiyatga ziyon yetkazsa, to'g'ri yo'lga tushib, kelajakda yaxshi inson bo'lishi faqat foyda keltiradi. Agar Jasurning tarbiyasiga o'z vaqtida ota-onasi, "mahalla yettilligi", faollar befarq bo'lmaganida, o'qishi, kim bilan va qayerda yurganini nazorat qilganida edi u ham jinoyatga qo'l urmagan, katta hayot ostonasidayoq yo'ldan adashmagan bo'lardi. Biroq endi hech. Ulug'larimiz aytganidek, qilmish – qidirmish. Jinoyatga esa jazo muqarrar.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

ZARIF SO‘Z ZIYORATI

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligining yirik vakili, filologiya fanlari doktori, professor Nizomiddin Mahmudovning “Zarif so‘z ziyorati” nomli yangi kitobi chop etildi. Sinchi olimning ilmiy va hayotiy mushohadalaridan yuzaga kelgan quyma, oharli, zalvari baland qarashlaridan iborat mazkur kitobni xalqimiz, ayniqsa, ijodkor ziyolilar, tilshunoslar, talaba-yoshlar katta xayrixohlik bilan ko‘tarinki ruhda kutib oldi.

Mutolaa

Bugungi kunda ushbu to‘plam qo‘lma-qo‘l o‘qilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Ilmiy faoliyati davomida 50 dan ortiq monografiya, darslik, risola, o‘quv qo‘llanma va lug‘atlar nashr ettirgan, 1000 ga yaqin ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik maqolalar e‘lon qilgan olimning nafaqat yurtimizda, balki xorijda ham obro‘-e‘tibori baland. Ilmiy ishlanmalari AQSH, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon kabi qator mamlakatlarda bosilib chiqqan va xalqaro maydonda e‘tirof topgan.

“Zarif so‘z ziyorati” kitobida muhtaram olimimizning qariyb ellik yillik ilmiy-adabiy faoliyatiga doir, tagiga chizib o‘qiladigan toza fikrlar, kitobu maqolalarning qaymog‘i jamlangan. Uni o‘qirkansiz, beixtiyor ona tilimiz jozibasini, so‘z qudrati, millat ma‘rifati haqida mushohadaga berilasis.

Xalq birligi timsoli

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy so‘zga ta’rif berib, shunday yozadi:

*Ma’dani inson gavhari so‘z durur,
Gulshani odam samari so‘z durur.*
So‘z – tafakkur qudrati, insoniy kamolot mezon. Millatni millat, xalqni xalq o‘laroq tasavvur etish, uning asrlar osha yashab kelayotgan abadiy an‘analari, o‘ziga xos ruhiyatini, tarixi, shakllanish omillari, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi yorqin o‘rnini bilish uchun ham, avvalo, tiliga e’tibor berish lozim. Chunki til – milliy qadriyatlar shukuhini o‘zida jamuljam etgan bitmas-tuganmas ma’naviy xazina, o‘zlik imoratining poydevori, tiriklik tayanchi, millat mavjudligining beqiyos timsolidir.

Shubhasiz, til – murakkab hodisa. Til tarixi – bu millat tarixi. Uning zamirida ajdodlarining nekbini qarashlaridan ulgu olib, metin qudratini dunyo tamadduni sahnida ko‘z-ko‘z etgan mag‘rur va o‘ktam avlodlarning ulug‘vor tabiati bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ladi. Til tadqiqotchisi esa bu bebaho boylikning muntazam soqchisidir. Vatan chegarasida kechayu kunduz uyg‘oq va shay turgan jasur posbon misol u ham hamisha, har lahzaga sergak va hushyor bo‘lmog‘i shart. “Til soqchisi”ning ishi xiyla qiyinroq ham: bugungi shiddatli globalashuv zamonida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarida davlatlararo integratsiyalashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi fonida tilning lug‘at boyligi turli-tuman yangi so‘zlarni qabul qilishga har qachongidan-da ko‘proq moyillik sezishi tabiiy. Bu esa tilning milliy va

bezavol qiyofasi, sofligini to‘la-to‘kis muhofaza etish vazifasini yanada murakkablashtiradi. Shunga qaramay jonkuyar olim “Zarif so‘z ziyorati”da yozganidek, *“ona tilini boshqa tillarning tazyiqidan, so‘z bosqinidan asramoq kerak, qo‘rmoq zarur”*.


Aslida, dunyo tillari bir-biri bilan doimiy aloqadorlikda, o‘zaro ta’sir natijasida rivoj topadi. Ularni mutlaq ayro bir tarzda tasavvur etish, birini ikkinchisiga butkul “begona” qilib ko‘rsatishga urinish ham behuda va befoydadir. Olim bu haqda aniq bir xulosaga kelgan: *“Yer yuzidagi tillar orasida birona ham mutlaqo sof til yo‘q. Hamma zamonlarda bir tildan boshqasiga, ko‘pdir-kamdir, so‘z o‘tib turgan, bir til boshqasiga u yoki bu darajada ta’sir qilgan”*. Faqat har bir til ko‘p ming yillik taraqqiyoti davomida aniq va qat’iy qonuniyatlariga ega bo‘lib, xalq va millat ruhini o‘zida aks ettirishini e’tibordan soqit qilmaslik lozim.

Shu ma’noda, o‘zbek tilining cheksiz imkoniyatlari, bitmas-tuganmas va xilma-xil so‘z xazinasiga e’tibor qaratmay, o‘zga tillarning sehru jozibasiga ko‘z-ko‘rona mahiyyolik tuyg‘usi ila boqish ham millatning qadr-qimmatini, hamiyati va oriyatiga bo‘lgan nopisandlik, hurmatsizlikdan boshqa narsa emas. Tilga xiyonat – elga, yurtga xiyonat, demak. Aniqrog‘i, *“o‘z ona tilini mukammal bilgan, bu tildagi tafakkur tarzi turg‘unlashgan, bu til ohanglaridan uzun huzur tuyu biladigan odamgina boshqa tilni qulay o‘rganadi va ayni paytda boshqa tilning va demakki, begona madaniyat mentalitetning quliga aylanmaydi”* (“Zarif so‘z ziyorati”).

Mazkur kitob mutolaasi ko‘ngilda ana shunday yoniq, farahli o‘ylar uyg‘otadi. O‘quvchini til va shaxs, til va millat, til va borliq, til va inson kamoloti xususida atroflicha mulohaza yuritishga undaydi.

Millat g‘ururi ramzi

Yurtimizda, ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy jabhada amalga oshirilayotgan misli ko‘rilmagan yangilanishlar inson manfaatlari, xususan, yosh avlodning axloqiy barkamoliligiga yo‘naltirilgandir. Ona tili ma‘rifati esa bu yo‘lda yo‘lchi yulduz misoli oshi manzillarni ko‘rsatib, nurlantirib turadi. Shunday ekan, davlatimiz rahbari o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda ta’kidlaganidek, *“har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga*



ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim”. Chunki tilga sadoqat, bu – ona tuproqqa, shu aziz zaminga, otana, yor-birodar, yaqinlarga sadoqat, bobolaru momolarimiz ruhi oldidagi o‘lmas burch va mas’uliyatdir.

Til – ko‘ngilga qanot beruvchi azaliy va adabiy ne’mat. U erk va erksevarlik mayog‘i. O‘tgan asrning boshlarida jadid bobolarimizni hurriyat epkinlari sari boshlagan mardona tuyg‘u ham ona tilimizga bo‘lgan cheksiz muhabbat hissi edi. Tilning sofligi, asliyat, qadr-qimmatini saqlab qolish yo‘lida jonkuyar va jonfido jaddilarimiz amalga oshirgan olamshumul ishlar barchamizga ma’lum. Mamlakatimiz rahbari aytganidek, *“Jaddilar g‘oyasi – Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang”*. Bugun mamlakatimizda tilga, u bilan bog‘liq ijobiy islohotlarga ayiricha e’tibor berilayotgani bu fikrlarni dalillaydi.

“Zarif so‘z ziyorati” ham ana shu nekbini qarashlardan, tilimizga bo‘lgan ulkan e’tibordan ilhomlanib yaratilgan. Kitob o‘zbek tiliga, uning hayotbaxsh shukhi, betakror tarovatiga oshuftalik kayfiyati bilan yo‘g‘rilgan. Unda Vatanga sodiqlik, yurtga fidoyilik, el va til taqdiriga kuyunchalik ruhi ifoda topgan. Umuman, “Zarif so‘z ziyorati” o‘z ona tiliga sohiblikdan iftixor tuygan samimiyyat sohibining hayotiy iqromomasidir.

“Ona tili bitta bo‘ladi”, deb yozadi olim. Hukumnamo ohangda aytilgan ushbu fikr o‘zgarmas va cho‘ng haqiqatning o‘ktam ovozi, desak, aslo xato emas. Chunki *“o‘zbek tiliga muntazam e’tibor, cheksiz hurmat-ehtirom jonajon O‘zbekistonimizga tuganmas hurmat va muhabbat demakdir”* (“Zarif so‘z ziyorati”).

Tafakkur tayanchi

Til nutq voqeeligini ifodalab, tafakkur sohibining axloqiy qiyofasi haqida ham muayyan xulosalar chiqarishga keng imkon yaratadi. Til jonli jarayon, u tinimsiz o‘zgarishda va harakatda, qolaversa, ijtimoiy hayotning barcha yo‘nalishlarida til insonning ma’naviy martabasini belgilovchi bosh omil. Kitobdagi quyidagi fikrlar buni

tasdiqlaydi: *“Jamiyatning har bir a‘zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o‘z ona tilining sadoqatli sohibi bo‘lmog‘i lozim”*.

Til – dunyoni bilish vositasiga emas, balki inson va insoniylikni kashf etish “kaliti”. Til – tafakkur tayanchi. Ulug‘ mutafakkir va shoir Alisher Navoiy til va nutqning qudratli kuchiga yuksak baho berib, *“Insonni so‘z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq, yo‘q ondin”* deganida, nechog‘li haqli edi. To‘g‘ri, jamiyat hayotida so‘z kommunikativ vazifa bajaradi, ya’ni u muloqot vositasidir. Qolaversa, oddiy so‘zlashuvda so‘z va gap tushunchalari bir qadar nisbiy xarakterga ega: biri ikkinchisi bildirgan mazmunda ishlatlaveradi. Tilshunoslik esa so‘zshunoslik san’atidir. Tilshunos – so‘zshunos, demak.

Tibbiyotda kasallikni tashxis qo‘ymasdan davolab bo‘lmaganidek, til ilmidam ham so‘zning kayfiyati – nutq jarayonidagi maromni maqomini to‘g‘ri baholamasdan turib, u yoki bu xususiyati haqida aniq to‘xtamga kelish qiyin.

So‘z sayqali ko‘ngilga zeb, ruhga chiroy baxsh etadi. So‘z zavqiqa oshufta bo‘lmagan, mushohada lazzatidan farah tuymagan ko‘ngil yuzaki tasavvurlar – qoliplardan tashqariga chiqmagan turg‘un qoidalar ta’sirida qolib ketaveradi. So‘z esa erk nafasi, hurriyat nashidasidir. N. Mahmudovning yozishicha, *“Ona so‘z bag‘riga bokira go‘dakday bosh qo‘yib, huzunsiz huzur va tugunmas hayrat tuyu olgan, butun vujudi ila ona so‘z ruhiga asir bo‘la olgan kishilargina o‘tmishidan, ajdodlaridan, Vatanidan faxrlana oladilar”*.

Til va badiiyat

Inson kamolot cho‘qqilariga, avvalo, tarbiya va ta’lim bilan yuksaladi. Izlanish va harakatlar bu yo‘lda unga qanot bag‘ishlaydi. Tarbiya va ta’limning tayanchi esa tildir. Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, *“Dunyodagi qadimiy va boy tillardan buri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning alalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrlil qo‘shiqclariga quloq tutsin”*.

Haqiqatan ham, ona allasi, bobolar o‘giti, ulug‘lar hikmatini tinglab, so‘z sehriga oshuftalikda ulg‘aygan avlodni o‘tkinchi hoyu-havaslar, yuzaki istaklar osongina yenga olmaydi – ular e’tiqodda sobitlik, yurtga sodiqlik, Vatanga fidoyilik kayfiyati bilan kamol topadi. Badiiy adabiyot esa ko‘ngil mehvariga insoniylik fazilatlarini so‘z shukhi ila muhrlash vositasidir. So‘zning estetik ta’sir quvvati, ichki – to‘lqinlantiruvchi garmoniyasi tufayli

ijodkorning san’atkorlik mahorati, kitobxonning badiiy didi ko‘zga yorqin tashlanadi. “Zarif so‘z ziyorati”da so‘z va uning badiiy adabiyotdagi mavqei borasida ham qimmatli fikrlar bayon qilingan. Jumladan, *“badiiy so‘zning maqsadi azaldan kitobxonni kamolot dunyosiga da‘vat etishdan iborat bo‘lgan”*, deydi nuqtadon muallif.

So‘zning joni bor – matnning “qon guruhi”ga tushmasa, “xorij”ligi bilinib, boshqa “safdosh”lari bilan kayfiyati kayfiyatiga, rangi rangiga mos tushmay, toqatsizlanib – “joni og‘rib” turaveradi. Shu sababli, “So‘zchi holin boqma, boq so‘z holini...”, deydi buyuk so‘z san’atkori Alisher Navoiy. So‘zchi so‘zni saylab, saralab, sayqallab ishlantmog‘i lozim. Chunki olimimiz aytganidek, *“adib, shoir, jurnalist mahoratining ibtidosi tilni to‘g‘ri va benuqson qo‘llay bilish malakasidan, ziyrak so‘z sezgisidan va sevgisidan boshlanadi”*. Yoki *“badiiy, xususan, she’riy nutqda har bir so‘z boshqa har qanday kontekstdagidan salmoqli va nafisroq bo‘ladi. She’riyatda so‘zning vazifasi ortadi, so‘z estetik butunlik sifatidagi asarning uzviy qismiga aylanadi. Shoir o‘z o‘rnida qo‘llagan, she’rda munosib joyini topa olgan so‘zgina estetik imkoniyatini to‘laligicha namoyon etmog‘i mumkin. O‘rinsiz qo‘llangan birgina so‘z, hatto birgina qo‘shimcha yoki tovush ham asarni chippakka chiqarishi tayin”*.

Shubhasiz, badiiy asar tili – ijodkor tili. Adabiy matn esa mahorat maydonidir. Unda har bir jihadni: tovush tovlanishiyu harf qo‘llanishigacha e’tiborda tutish joiz. Chunki *“haqiqiy she’rda har bir so‘z, qo‘shimcha, tinish belgisi muayyan, muntazam estetik qimmatga ega”*.

Mazkur kitob 15 faslidan tarkib topgan. Har bir fasl olimning ilmiy xulosalari, hayotiy qarashlari bilan uyg‘unlikda axloqiy qiyofasidagi o‘ziga xosliklarni ham ifoda etgan: “Til – bemisli va muhtasham sinoat”, “Til siyosati va siyosat tili”, “Til ta’limi oiladan boshlanadi”, “So‘zga sinchilik saodati”, “Jo‘yali nutq sirlari”, “Til va fazilat ilmi”, “So‘z va san’at”, “Til va tafakkur”, “Til ta’limi va idroki masalalari”, “So‘z va badiiyat”, “Yozuv – tilning libosi”, “Til ta’limi va muallim”, “Kitobxonlik va nashr madaniyati”, “Ma’rifatning oydin manzillari”, “Til va milliy nigoh”. Umuman, “Zarif so‘z ziyorati” teran, falsafiy qarashlarga boy, millatsevarlik, vatanparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan, ijod zavqi va so‘z sevgisi borasida yo‘shqin, haqqoniy fikrlar ilgari surilgan o‘ziga xos ma’naviy jamlamadir. Kitob Yangi O‘zbekistonda kamol topayotgan yosh avlodni ona Vatanga, ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalashda, ularga so‘z ma‘rifatini chuqurroq anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsud ASADOV,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor.



Voleybol: 2026-yilning ilk muhim musobaqasi

Voleybol bo'yicha 2026-yilning ilk yirik musobaqasi – O'zbekiston chempionati oliy liga 1-tur bahslarining tantanali ochilish marosimida Osiyo voleybol konfederatsiyasi prezidenti Ramon Suzara qatnashadi. Bu haqda O'zbekiston voleybol federatsiyasi xabar qilmoqda.



Aytilishicha, 22 – 29-yanvar kunlari erkaklar jamoalari o'rtasida bo'lib o'tadigan chempionat bahslari xalqaro tizimga integratsiya qilingan “challenge” yordamida o'tkaziladi. Bu har bir o'yin haqqoniy, shaffof o'tishini ta'minlaydi.

Musobaqa nizomiga muvofiq, kecha qur'a tashlash marosimi, jamoalar uchun mandat komissiyasi yig'ilishlari, hakamlar uchun seminar mashg'ulotlari tashkil etildi. 22-yanvardan poytaxtimizdagi “Olimpiya shaharchasi” jamoaviy sport turlari zali hamda “Jar” sport-sog'lomlashtirish markazida oliy liga 1-tur o'yinlarining guruh bosqichi uchrashuvlari boshlansa, 24-yanvar kuni chempionatning tantanali ochilish marosimi o'tkaziladi.

Stenddan o'q otish: merganlarimiz muvaffaqiyati

Qatarning Doha shahrida stenddan o'q otish sport turi bo'yicha Osiyo chempionati o'tkazildi. Mazkur bellashuvda o'zbekistonlik sportchilar ham qatnashib, muvaffaqiyatga erishdi.



Jumladan, 17 ta davlatdan 196 nafar sportchi qatnashgan qit'a chempionatida milliy terma jamoamiz a'zolari uchta medalni qo'lga kiritdi.

Murosasiz bahslar sarhisobiga ko'ra, trap yo'nalishi bo'yicha yoshlarning yakkaalik bahslarida terma jamoamiz a'zosi Oxunjon Abdugodirov oltin, qizlar o'rtasida Yaroslava Eshstayeva kumush, yoshlar umumijamoa bahslarida Oxunjon Abdugodirov, Azamat Qayumov hamda Shohruh Sadirovdan iborat sportchilarimiz 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Karate: “Shimkent open”dan 7 ta medal!

Qozog'istonda karate WKF bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida “Shimkent open” xalqaro turniri o'tkazildi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarning yoshlar va o'smirlar jamoalari qatnashgan musobaqada 15 nafar o'zbekistonlik karatechi g'oliblik uchun kurash olib bordi. Murosasiz bahslar yakunida terma jamoamiz a'zolari 1 ta oltin, 2 ta kumush, 4 ta bronza, jami 7 ta medalni qo'lga kiritdi.

Iste'dodli karatechilarimizdan Samandar Zokirov 60 kilogrammgacha vazn toifasida kechgan musobaqalarda barcha raqibidan ustunligini namoyish etib, oltin medalga sazovor bo'ldi. Suhrob Sa'dullayev va Saidabonu Musaxonova kumush, Zufar Annamuhamedov, Muhammadrashid Abulatifov, Shohjahon Otaxonov hamda Alirizo Shuhratov bronza medallariga ega chiqdi.

“Xalq so'zi”.

TURIZM — IQTISODIYOTNING STRATEGIK TARMOG‘I



Hali qilinadigan ishlar ko‘p

Turizmni yanada rivojlantirish maqsadida qator strategik vazifalar belgilangan. Jumladan, xizmatlar sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, sohada malakali kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlari kuchaytiriladi, har bir viloyat va tumanning turistik brendi shakllantiriladi. Xususiy sektor va investitsiyalarni jalb qilish kengaytirilib, davlat-xususiy sheriklik asosida yirik turistik loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Murojaaatnoma da aytilganidek, Samarqandda Bibixonim, Registon majmualari, Amir Temur maqbarasi, Ulug‘bek

rasadxonasi, Shohi Zinda va Afrosiyob muzeyini bir-biri bilan bog‘laydigan zamonaviy yo‘lak va ko‘priklar barpo etiladi. Shuningdek, Shahrisabzda “G‘elon” yirik turistik majmuasining birinchi bosqichi ishga tushirilishi, Pop tumanida “Arashan” tog‘-dam olish turistik zonasi hamda Xivadagi Ichan qal’ani immersiv – “jonli” va “aqilli” muzey-shaharga aylantirish, Xorazm va Qoraqalpog‘istondagi arxeologik yodgorliklar bo‘yicha yirik turizm halqasini tashkil etish maqsad qilingan.

Bu yil tadbirkorlar tomonidan 4 mlrd. dollarlik 3,5 mingdan ziyod yangi servis obyektlari ishga tushiriladi. Turizm maskanlariga asos solish uchun kelgusi uch yilda 5 ming gektar yer auksionga chiqariladi. Bundan tashqari,



madaniy meros obyektlarida xususiy sheriklik asosida “butik mehmonxona” tashkil qilish uchun nufuzli mehmonxona tarmoqlari olib kelinadi. Dastur ishtirokchilariga yer, mulk, foyda soliqlari va bojxona to‘lovi bo‘yicha imtiyoz beriladi. Mana shu ishlar hisobiga 2026-yilda xizmatlar bozori 100 mlrd. dollardan oshirilishi kutilmoqda.

Davlatimiz rahbari

yaqinda xalqaro madaniy tadbirlarning natijalari, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha navbatdagi vazifalar hamda yirik madaniyat va turizm obyektlarini barpo etishga oid taqdimot bilan tanishuv chog'ida turizm salohiyatini AQSH, Fors ko'rfazi davlatlari, Hindiston, Xitoy va Skandinaviya kabi ustuvor bozorlarda ilgari surish bo'yicha yangi marketing

strategiyasini amalga oshirish zarurligini ta'kidladi. O'zbekistonning xalqaro turistik platformalardagi ishtirokini kengaytirish, raqamli kontentni rivojlantirish hamda yirik mediaressurslar va fikr yetakchilarini jalb qilish vazifalari belgilanib, yirik madaniyat va turizm obyektlari loyihalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda turizm

sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tizimi va uzoq muddatli maqsadlarga qaratilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar va kelgusidagi rejalarni natijasida mamlakatimiz Markaziy Osiyoning yetakchi turistik maskanlaridan biriga aylanishi muqarrar.

G'olib BAHROMOV
(“Xalq so'zi”).

Kitob o‘qigan ayrim mahkumlarning jazo muddati har bir o‘qilgan kitob uchun 3 kunga, biroq 1 yilda ko‘pi bilan 30 kungacha qisqartirilishi mumkin.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda Ozbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan royxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 tabaq. Ofset usulida bosilgan. Qogoz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; Kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo‘lyozmalar taqrig qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chog etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhili S. Islomov.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘ZA yakuni – 00.35 Topshirildi – 00.40 **1 2 3 4 5 6**